

# AYYOLAR KO'YLAGI BEZAKLARINI TAYYORLASH VA DETALLARGA ULASH MAVZUSIDA FAOL TA'LIM USULLARINI QO'LLASH METODIKASI

**Berdiqulova Gulbahor Xasanovna**

*Toshkent viloyati O'rta Chirchiq tuman 1-sون kasb-hunar maktabi*

*Ayollar kiyimini tikish texnologiyasi fani o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Maqolada ta'limgarayonida o'qituvchining innovatsion faoliyati va interfaol usullarni dars jarayonida qo'llash metodikasi haqida fikr yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** innovatsiya, kasbiy malaka, innovatsiya, klassifikator, pedagogik konsepsiylar, uzlusiz ta'limgar, Pinbord, Klaster, Aqliy hujum, Venna diagrammasi.

Ta'limgarbosqichlariga innovatsion pedagogik texnologiyalarning jadal kirib kelganligi XXI asrning tezkor axborot texnologiyalari barcha jabhalarni qamrab olganligi bilan izohlanadi. Bugungi pedagogdan o'z kasbiy malakasini muttasil takomillashtirib borish bilan birga innovatsion pedagogik texnologiyalar yaratish, ularni ta'limgarayonida qo'llashga layoqatli bo'lish talab etilmoqda.

Pedagogning innovatsion faoliyatga tayyorgarlik darajasi kasbiy malakasining eng muhim ko'rsatkichiga aylandi. Zotan, pedagogning innovatsion faoliyati ijodiy izlanishlari, ta'limgar shakli va mazmunini takomillashtirish yo'lidagi ilg'or g'oyalar yaratish, yangiliklar kashf etish salohiyatini namoyon qiladi.

Innovatsion pedagogik texnologiyalar vositasida ta'limgar oluvchi-ta'limgar oluvchilarda ham yaratuvchilik, ijodkorlik, mustaqil fikrlash ta'limgar maqsadlariga o'z izlanishlari, ongli ijodiy munosabat orqali erishish layoqatini tarkib toptirish ko'zda tutiladi.

"Innovatsiya" lotincha so'z bo'lib, "yangilanish", "yangilik" ma'nosini ifoda etadi. Innovatsion ta'limgar tarbiya jarayonining shakli va mazmunini takomillashtirishga xizmat qiluvchi yangi g'oyalar yaratishni ko'zda tutadi.

Innovatsion g'oyalar bugungi ta'limgar amaliyotiga jadal kirib bormoqda. Pedagogik innovatsiyalar ta'limgar sifati va samaradorligi ortishiga xizmat qiladi. Ayni damda, jamiyatdagi har qanday yangilanish jarayonlari, islohotlar mohiyati bilan uzviy bog'liq holda ro'y beradi. Davlat ta'limgar standartlarining yangilanib borayotganligi; o'quv-metodik adabiyotlar, darsliklar, dasturlar, ta'limgar sohalariga oid klassifikatorlar mazmun-mohiyati takomillashib borayotganligi yangi-yangi pedagogik konsepsiyalarga turki bermoqda. Bu kabi yangilanishlar pedagogik innovatsiyalarning ta'limgar sohalari va uzlusiz ta'limgar tizimiga jadal kirib borishini taqazo etmoqda.

Zamonaviy pedagoglarning ayni jarayonlar ichida faol ish olib borishi qator

kasbiy sifatlari qatori innovatsion faoliyatga tayyorlik darajasini talab etmoqda. Bunday faoliyatga layoqatilik darjasini ta’lim texnologiyasi loyihasi va uning markazidagi pedagogik g‘oyada aniq namoyon bo‘ladi. Ta’lim texnologiyasining yaratuvchisi – pedagog nazariy bilim, amaliy tajriba, ilg‘or ta’lim metodlari va usullarini qo‘llash mahoratini egallagan bo‘lsa, ta’lim sifati bilan samaradorligi kafolatlanadi.

Har qanday o‘qitish texnologiyasi muayyan didaktik maqsadga yo‘naltirilar ekan, uning asosida aniq pedagogik g‘oya yotadi. Pedagogik texnologiyalar mohiyati ta’lim oluvchi shaxsni xilma-xil jihatlardan rivojlantirish g‘oyasidan tashkil topgani uchun xilma-xil mavzular bo‘yicha ta’lim texnologiyalari asosida ham ayni shu g‘oya harakat qiladi. Biroq bu g‘oyani qanday shaklda, qaysi usullar yordamida va qanday qilib amalga oshirish kerak, degan savolga har safar yangi, original javob topishga harakat qilinadi. Ana shu “javob”dan texnologiyani harakatga keltiruvchi pedagogik g‘oya mohiyati tushuniladi.

Uzluksiz ta’lim bosqichlarida ta’lim texnologiyalari samaradorligini ta’minalashga xizmat qiluvchi interfaol usullardan keng foydalanilmoqda.

“Klaster texnikasi”, “Aqliy hujum”, “Pinbord”, “kauching”, “keys-stadi”, “Loyihaviy o‘qitish” kabi o‘nlab usullar nomi barchaga tushunarli va tanish. Ta’lim amaliyotida o‘qituvchi ulardan foydalanishni rejalashtirar ekan didaktik maqsadni asos qilib oladi. Ayni damda bu maqsadni qanday amalga oshirish ustida bosh qotiradi.

Muammoni yechish uchun muayyan g‘oya yaratish zarurati kelib chiqadi. Xo‘sish, didaktik maqsad aniq, uni amalga oshirish bosqichlari, ta’lim usullari belgilandi, ammo ta’lim texnologiyasi nima asosiga quriladi?

“O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”da “G‘oya – inson tafakkurida vujudga keladigan, jamiyat va odamlarni maqsad sari yetaklaydigan fikr. Unda olamni bilish va o‘zgartirish maqsadlari, ularga erishish yo‘llari va vositalari mujassam bo‘ladi”<sup>1</sup> – deb izohlangan. Ushbu ta’rifni pedagogik texnologiyalarga tatbiq qiladigan bo‘lsak, “ta’lim berish va o‘zlashtirish usullarini yaratish, qo‘llash, ularni yagona tizimga keltirish”<sup>2</sup> ning optimal variantlarini tadqiq etish degan ta’rif kelib chiqadi. Pedagogik texnologiyalarning ta’lim oluvchilar nutqini o‘stirishga yo‘naltirilgan variantlari uni ishlab chiqqan o‘qituvchi-pedagoglar yaratuvchilik faoliyati natijasidir. Ayni faoliyat asosida ham muayyan qarash, ta’lim samaradorligini ta’minalash haqidagi g‘oya turadi.

Har qanday pedagogik texnologiya yo‘llovchi (yo‘naltiruvchi), bajaruvchi nazorat qiluvchi va tuzatuvchi harakatlarni birlashtiradi. Innovatsion texnologiya asosida pedagog va talaba munosabatlarining o‘zgarish darajalari:

-pedagog bilimni tashuvchi, yetkazuvchi emas, talabani o‘qish bilim olishda yordamchi, maslahatchi, tashkilotchi rahbarga aylanadi;


-pedagog konstruktorlash, loyihalash, algoritmlash, sharoitda ish yuritishga o‘rganib boradi;

- ikki tomonlama faol, mas’uliyatli, ijodkorlik asosida ish yuritish malakasi shakllanadi;

-ta’lim oluvchi o‘zini-o‘zi o‘qitish, faol ishlashida yakka, juft, kichik guruhlarda mustaqil ishlash muhiti yordam beradi;

-o‘quv jarayoni individuallashtiriladi;

-ta’lim natijalari kafolatlanadi




“Aqliy hujum”, “Klaster texnikasi”, “Venna diagrammasi”, “Pinbord texnikasi”, “Muammoli ta’lim”, “6x6x6” kabi metodlar vositasida o‘qituvchi Ta’lim oluvchining qanday o‘quv topshiriqlari ustida ishlashlari yoki qanday muammoni hal qilishlari lozimligini oldindan belgilab, shu masalalar yechimini topishga yo‘llovchi savollar, kartochkalar, jadvallar tayyorlaydi.

Mashg‘ulot texnologiyasini ishlab chiqadi va loyihalaydi. Ta’lim oluvchilar tayyor topshiriqlar asosida izlanishga yo‘naltiriladi, topshiriqlar tushunib olingach, faol izlanish, o‘ylash, mustaqil faoliyat bosqichiga o‘tadilar. O‘z qarorlari, hukm xulosalarini tayyorlashga kirishadilar.

Quyida Ayollar kiyimini tikish texnologiyasi fanidan “Ayollar kiyimidagi bezak beruvchi elementlarni tayyorlash va detallarga ulash” mavzusi bo‘yicha dars jarayonida qo’llaniladigan interfaol usullarni havola qilmoqchiman.

Aqliy hujum usuli

O‘quvchilarni faollashtirish



**Guruhlarda ishlash qoidasi**

☞ Sherigingizni diqqat bilan tinglang.

Guruh ishlarida o'zaro faol ishtirok eting, berilgan topshiriqlarga javobgarlik bilan yondashing.

Agar yordam kerak bo'lsa, albatta, murojaat qiling.

Agar sizdan yordam so'rashsa, albatta, yordam bering.

**Tushunchalar tahlili**

№	Tushuncha	Mazmun
1	Volanlar	burmalarga o'xshab ketadi, ular bitta chiziq bo'ylab bichilmaydi, balki aylana bo'ylab bichiladi. Bir tomoni bo'ylab buyumga tikilsa, ikkinchi tomoniga ishlov beriladi.
2	Ryushlar	lentasimon gazlama bo'lagi bo'lib, uning o'rtasidan yig'iladi. Ryush 45° burchak ostida bichiladi.
3	Burmalar	lentasimon gazlama bezagi bo'lib uning bir chetidan yig'iladi. Burmaning bir tomoni buyumga tikilsa, ikkinchi tomoniga ishlov beriladi.
4	Gofre	tik taxlangan va presslangan taxlamalardir.
5	Buflar	matoda murakkab tartibda hosil qilingan, sodda qilib aytganda ,chiroyli shakllangan va mahkamlangan burmalar, detallar bilan bezak berish.
6	Plisse	bu bir tomonga yotqizib taxlangan va presslangan taxlamalar yig'indisi.

Har qanday mashg'ulot turi asosiga o'quvchilarga ta'lim tarbiya berishni, ularning ma'naviy olamiga yangilik olib kirishni shu paytgacha hosil bo'lga bilim, ko'nikma va malakalarni rivojlantishni, o'quvchilarni kasbiy yo'llanishi bo'yicha fanning yangi qirralari egallashini maqsad qilib olishi kerak. Har qanday maqsadga erishish uchun esa o'qituvchi izlanish va dars turini to'g'ri tanlab olishi zarur. Dars jaroyonida innovatsion texnologiyalarni qo'llash o'quvchilarni mustaqil fikrlashga,o'zgalar fikrini humatlashga,ijodiy izlanishga undaydi.

### Foydalangan adabiyotlar

1. Truxanova A.T. «Tikuvchilik texnologiyasi asoslari», T., 1980 y.
2. Jabborova M.SH. «Tikuvchilik texnologiyasi», T., O'zbekiston, 1994 y.
3. Litvinova I.N., SHaxova YA.A. «Ayollar ustki kiyimini tikish», Legpromizdat, 1987
4. Rasulova M.K. “Tikuv buyum larni ishlab chiqarish texnologiyasi” Toshkent, 2006 y.
5. Qulijonova G.K., S.S.Musaev “Yengil sanoat mahsulotlari texnologiyasi”. Toshkent 2002 y.
6. Q.T.Olimov, D.F.Jalolova “Tikuvchilik korxonalari va jihozlari”, T., Mehnat, 2003y
7. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarini ta'lif jarayoniga tatbiq etish uslubiy qo'llanma, uslubiy qo'llanma, (O'qituvchi-pedagoglar va ishlab chiqarish ta'lif ustalari uchun uslubiy qo'llanma, Toshkent – 2021

### Internet manbalari:

[www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)

[www.textile-press.ru](http://www.textile-press.ru)

[www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)

[www.afina.uz](http://www.afina.uz)

[www.titli.uz](http://www.titli.uz)

[www.mexnat.uz](http://www.mexnat.uz)

[www.uzstudent.uz](http://www.uzstudent.uz)

[www.knowledge.allbest.ru](http://www.knowledge.allbest.ru)

[www.ucheba.ru](http://www.ucheba.ru)